



IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLARNING MOHIYATI

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası,
Sotsiologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi
Aminova Sevinch Sunnatillo qizi
aminova.s0804@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Jarayon tushunchasining umumiy mazmuni, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, siyosiy jarayonning tuzilishi, uning turlari va siyosiy tizimga bog'liqligi haqida ma'lumot berilgan. Ishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning real hayotdagi namoyon bo'lishi, globallashuv sharoitidagi o'zgarishlar va xalqaro tashkilotlarning ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Mazkur mavzu jamiyatdagi boshqaruv, barqarorlik va ijtimoiy munosabatlarni tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Jarayon, ijtimoiy jarayon, siyosiy jarayon, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, hokimiyat, siyosiy tizim, barqarorlik, globallashuv, saylov, islohot.

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность социально-политических процессов, их роль и значение в жизни общества. Анализируется общее содержание понятия «процесс», взаимосвязь социальных и политических процессов, а также особенности их развития. Также рассматриваются структура политического процесса, его виды и связь с политической системой. В работе изучается проявление социально-политических процессов в реальной жизни, изменения в условиях глобализации и влияние международных организаций. Данная тема имеет



важное значение для понимания управления обществом, стабильности и социальных отношений.

Ключевые слова. Процесс, социальный процесс, политический процесс, социально-политические процессы, власть, политическая система, стабильность, глобализация, выборы, реформы.

Kirish. Jarayon – voqea va hodisalar rivojidadagi uzluksizlikni, tabiat, jamiyat va insoniyat hayotidagi muttasil va doimiy harakatni ifodalovchi tushuncha. Jarayon ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, ilmiy va boshqa sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Miqyosiga ko'ra umumbashariy, mintaqaviy va milliy ahamiyatga molik jarayonlar bir-biridan farqlanadi. Ijtimoiy jarayonlar, odatda, ularni belgilovchi omillar va manbalarga nisbatan sabab va oqibat sifatida namoyon bo'ladi. Demak, har qanday jarayon, shu jumladan, ijtimoiy jarayonlar zohiriy va botiniy asoslarga ega bo'lib, ular ayni chog'da sabab va oqibat, zaruriyat va tasodifiyat tushunchalarida o'z ifodasini topadigan munosabatlarni anglatadi. Ijtimoiy taraqqiyotning tarkibiy qismi bo'lgan jarayonlar jamiyat kayfiyatiga ta'siri nuqtai nazaridan salbiy va ijobiy tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Jarayon inson omilining kuchi va qudratiga bog'liq. Ularni boshqarish, maqsad sari yo'naltirish muhim ahamiyatga egadir.

Siyosiy jarayon – jamiyat siyosiy tizimining faoliyat yuritish usuli, siyosat subyektlarining umumiy faoliyati, siyosiy tizimning faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlaydi.¹

Siyosiy jarayonning mohiyati va mazmuni ko'rib chiqilayotgan siyosiy tizim va siyosiy rejimning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Demak, demokratik tuzum fuqarolarning davlatni boshqarishda keng huquqlarga ega bo'lgan, davlatning o'zida inson va fuqaroning huquq va erkinliklari hurmat qilinadigan hamda ta'minlanadigan siyosiy jarayon turiga mos keladi. Aksincha,

¹ Сущность и структура политического процесса Архивная копия от 31 января 2017 на Wayback Machine// Тавадов Г. Т. Политология: Учебное пособие. — М.: ФАИР-ПРЕСС, 2000. — 416 с.



totalitar turdagi siyosiy tizimda siyosiy jarayon fuqarolarning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishi uchun har qanday real imkoniyatni butunlay istisno qiladi, chunki siyosiy va ijtimoiy tanlash erkinligi mavjud emas.

Uning tuzilishiga ko'ra, „siyosiy jarayon subyektlar, siyosiy harakat tashuvchilari va obyekt - erishish kerak bo'lgan maqsaddan iborat“. Siyosiy jarayonga vositalar, usullar, resurslar va ijrochilar ham kiradi.²

Siyosiy jarayonning mavjudlik holati bo'yicha uchta rejim o'zaro farqlanadi: 1. Harakat qilish tuzumi fuqarolar va hokimiyat institutlarining o'zaro murakkab aloqalari bo'yicha siyosiy tizim doirasidan chetga chiqmaydi. Ushbu holatda siyosiy jarayon hokimiyat strukturalari va mexanizmlarining faqat elita va elektorat o'rtasidagi eskirgan, takrorlanuvchi munosabatlarini aks ettiradi. 2. Rivojlanish tuzumi. Bu yerda hokimiyat strukturalari va mexanizmlari davlat siyosati doirasida yangi rivojlanish harakatlari bosqichiga ko'tariladi, bu holat bevosita davr talabiga adekvat javob tarzida yuzaga keladi. Bu ko'rinishdagi siyosiy o'zgarishlar ritmi shuni anglatadiki, bunda boshqaruvchi doiralar mamlakat ichida va dunyo maydonlari miqyosida o'zgaruvchan siyosiy kuchlar munosabatlari holatida va shuningdek ijtimoiy strukturalarda amalga oshuvchi o'zgarishlarga mos ravishda boshqaruv usullari va maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydilar. Tanazzul tuzumi, siyosiy bir butunlikning parchalanishi yoki «siyosatning regressiv metamorfozi» tuzumi. Ushbu holatda siyosiy jarayon yo'nalish dinamikasi siyosiy tizimning mavjudligi bir butunligi sharoitlariga va me'yorlariga nisbatan salbiy ta'sirga ega hisoblanadi. Natijada qabul qilingan tuzum o'zining boshqaruvchanlik xususiyatini yo'qotadi, tuzumning o'zi esa o'zining qonuniylik xususiyatini yo'qotadi. Ushbu ko'rinishdagi siyosiy jarayonlarga klassik misol sifatida sobiq socialistik mamlakatlar taqdirini ko'rsatib o'tish mumkin, bunda boshqaruvchi

²Сущность и структура политического процесса Архивная копия от 31 января 2017 на Wayback Machine // Тавадов Г. Т. Политология: Учебное пособие. — М.: ФАИР-ПРЕСС, 2000. — 416 с.



doiralarning o‘zlari o‘sha davrda amalga osha boshlagan ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy masalalarga javob berish, adekvat chora-tadbirlarni amalga oshirishga qodir bo‘lmay qolishgan. Siyosiy jarayonning mavjudligini tavsiflab beruvchi ushbu uchala tuzum o‘zining ommaviy ehtiyojlarini qondirish uchun siyosiy hokimiyat institutlari va turli xil boshqa kanallardan foydalanuvchi ko‘plab guruhlar va ularga tegishli bo‘lgan fuqorolarning o‘zaro doimiy munosabatlari bilan tavsiflanadi. Shuningdek, xohlagan jamiyatda ushbu ko‘rinishda yoki boshqa yo‘l bilan ma’lum bir aniqlikdagi davlat siyosati vujudga kelishi kuzatilishini hisobga olgan holda, turli xil guruhlarining ko‘p xildagi talablarini o‘zida aks ettiruvchi siyosiy jarayonni jamiyatda guruhlar o‘rtasidagi hokimiyatga bo‘lgan irodasini shakllantirish va amalga oshirishda siyosiy sub’yektlarning institutlashtirilgan va institutlashtirilmagan harakatlari yig‘indisi sifatida qarash mumkin.³

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar — bu jamiyatda siyosiy hokimiyat, ijtimoiy guruhlar va institutlar o‘rtasida yuz beradigan o‘zgarishlar hamda o‘zaro ta’sirlar tizimidir. Bu jarayonlar orqali jamiyat boshqariladi, qonunlar ishlab chiqiladi va ijtimoiy tartib ta’minlanadi.

Mazkur jarayonlarning mohiyati, avvalo, hokimiyatni shakllantirish, taqsimlash va amalga oshirish bilan bog‘liq ekanligida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, kim boshqaradi, qanday boshqaradi va qanday maqsadlarda boshqaradi — shu savollar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asosini tashkil etadi. Bu jarayonlarda davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar faol ishtirok etadi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar doimiy harakatda bo‘lib, ular jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanadi. Masalan, iqtisodiy o‘zgarishlar siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ta’sir qiladi yoki ijtimoiy norozilik siyosiy islohotlarga olib kelishi mumkin.

³ Siyosiy sosiologiya /uslubiy qo‘llanma/ Latipova N.M, Tayjanova N.S.-T.-2013



Ularning yana bir muhim jihati — jamiyatdagi turli manfaatlarni muvofiqlashtirishidir. Har bir ijtimoiy guruh o'z manfaatiga ega bo'ladi va bu manfaatlar ba'zan qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda siyosiy mexanizmlar orqali murosaga erishiladi va barqarorlik ta'minlanadi.

Hozirgi davrda globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy jarayonlar yanada ochiq va tezkor tus olmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, jumladan United Nations ham davlatlarning siyosiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Nazariy jihatdan bu jarayonlarni o'rganishda Samuel P. Huntington muhim hissa qo'shgan. U o'zining *Political Order in Changing Societies* asarida siyosiy barqarorlik kuchli institutlar orqali ta'minlanishini asoslab bergan.⁴

Davlatda saylov bo'lishi — bu ijtimoiy-siyosiy jarayonning eng oddiy ko'rinishi hisoblanadi. Saylov vaqtida fuqarolar ovoz beradi, siyosiy partiyalar o'z dasturlarini taklif qiladi va natijada hokimiyat shakllanadi. Bu jarayon orqali "kim boshqaradi" degan masala hal qilinadi.

Yoki narx-navoning oshishi (inflyatsiya) ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir qiladi. Masalan, mahsulotlar qimmatlashsa, odamlar norozi bo'lishi mumkin. Bu esa hukumatni yangi qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Ya'ni iqtisodiy holat siyosiy qarorlarga ta'sir qiladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar — bu faqat siyosatchilar ishi emas. U har bir inson hayotiga ta'sir qiladi: narxlar, qonunlar, saylovlar, hatto mahalladagi muammolar ham shu jarayonning bir qismidir.

Xulosa. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jamiyat rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali hokimiyat shakllanadi, ijtimoiy manfaatlar muvofiqlashtiriladi va jamiyatda tartib hamda barqarorlik ta'minlanadi. Bu jarayonlar doimiy harakatda bo'lib, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sirida

⁴ A. Jo'rayev – *Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar nazariyasi*, Toshkent, 2020.



o'zgarib boradi. Shuningdek, globallashuv sharoitida ularning ahamiyati yanada ortib, xalqaro tashkilotlar va axborot texnologiyalari ta'siri kuchaymoqda. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur tushunish jamiyatdagi o'zgarishlarni to'g'ri tahlil qilish va siyosiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сущность и структура политического процесса Архивная копия от 31 января 2017 на Wayback Machine// Тавадов Г. Т. Политология: Учебное пособие. — М.: ФАИР-ПРЕСС, 2000. — 416 с.
2. Сущность и структура политического процесса Архивная копия от 31 января 2017 на Wayback Machine // Тавадов Г. Т. Политология: Учебное пособие. — М.: ФАИР-ПРЕСС, 2000. — 416 с.
3. Siyosiy sosiologiya /uslubiy qo'llanma/ Latipova N.M, Tayjanova N.S.-T.-2013
4. A. Jo'rayev – Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar nazariyasi, Toshkent, 2020.